

ASOSIY VOSITALARNI QAYTA BAHOLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

Aminboyev Jaloliddin

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0004-9468-8519

diplomat1236@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada asosiy vositalarni qayta baholash jarayonini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan yoritilgan. Jumladan, asosiy vositalarni qayta baholashga oid milliy va xalqaro standartlar qiyosiy tahlil qilinib, ularning o'xshash va farqli jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, asosiy vositalarni qayta baholash usullari tasniflanib, ularni amaliyotda qo'llash tartibi bayon etilgan. Qayta baholash jarayonini tashkil etish va amalga oshirishning izchil ketma-ketligi bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilib, tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: asosiy vosita, qayta baholash, boshlang'ich qiymat, balans qiymati, qoldiq qiymat, haqqoniy qiymat, boshlang'ich qiymat modeli, qayta baholash modeli, amortizatsiya, eskirish.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА ПЕРЕОЦЕНКИ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ

Аминбойев Джалолиддин

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье научно рассматриваются вопросы совершенствования процесса переоценки основных средств. В частности, проводится сравнительный анализ национальных и международных стандартов переоценки основных средств, выявляются их сходства и различия. Также классифицируются методы переоценки основных средств и описывается порядок их практического применения. Разработаны научно обоснованные предложения по последовательной организации и реализации процесса переоценки, сформулированы соответствующие выводы.

Ключевые слова: основные средства, переоценка, первоначальная стоимость, балансовая стоимость, остаточная стоимость, справедливая стоимость, модель первоначальной стоимости, модель переоценки, амортизация, износ.

IMPROVING THE PROCESS OF REVALUATION OF FIXED ASSETS

Aminboyev Jaloliddin

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article scientifically covers the issues of improving the process of revaluation of fixed assets. In particular, a comparative analysis of national and international standards for revaluation of fixed assets is carried out, their similarities and differences are revealed. Also, methods of revaluation of fixed assets are classified and the procedure for their application in practice is described. Scientifically based proposals are developed on the consistent sequence of organization and implementation of the revaluation process, and relevant conclusions are formulated.

Keywords: fixed asset, revaluation, initial value, book value, residual value, fair value, initial value model, revaluation model, amortization, depreciation.

Kirish.

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida buxgalteriya hisobi subyektlari moliyaviy hisobotida aks ettirilayotgan axborotlarning ishonchliligi, shaffofligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlash buxgalteriya hisobi tizimining muhim ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur talablarni ta'minlashda aktivlar tarkibida salmoqli ulushga ega bo'lgan, asosiy vositalar hisobi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, asosiy vositalarni qayta baholash va amortizatsiya hisobini takomillashtirish masalalari moliyaviy hisobot sifatini oshirishga qaratilgan dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, "Ko'chmas mulk obyektlarining bozor narxiga yaqin bo'lgan qiymatini aniqlashning zamonaviy usullari va mexanizmlarini joriy etish va keng qo'llash, aholi va tadbirkorlarning iqtisodiy aktivlari o'sib borishi uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-43-sonli Farmoni qabul qilindi (Farmon, 2025). Unda ko'chmas mulk obyektlarini bozor narxiga yaqin bo'lgan qiymatini aniqlash maqsadida 2025-yildan boshlab bosqichma-bosqich davriy ravishda ommaviy baholash o'tkazilishi belgilangan. Chunki, bugungi zamonaviy iqtisodiy muhitda inflyatsiya jarayonlarining kuchayishi, bozor qiymatlarining o'zgaruvchanligi, asosiy vositalarning jismoniy va ma'naviy eskirishi, shuningdek, texnologik yangilanish jarayonlarining jadallashuvi aktivlarning tannarxi bilan ularning haqqoniy qiymati o'rtasidagi farqning ortishiga olib kelmoqda. Bunday holat esa, asosiy vositalarni davriy ravishda qayta baholash zaruratini obyektiv ravishda yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar sharhi.

Asosiy vositalarni qayta baholash va buxgalteriya hisobida qayta baholash natijalarini aks ettirish tartibini takomillashtirish masalalarini xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, mazkur tadqiqotlar natijalari ilmiy va o'quv-uslubiy asarlarida o'z ifodasini topgan. Xususan, xorijlik iqtisodchi olimlar Adam Hayes, Margaret James (2021) "Asosiy vositalarni qayta baholash - bu kompaniyaning asosiy vositalari yoki asosiy vositalar guruhining adolatli bozor qiymatidagi har qanday jiddiy o'zgarishlarni hisobga olish uchun ularning balans qiymatini oshirish yoki kamaytirishni hisobga olish jarayoni" sifatida ta'riflaydi. Ushbu ta'rif qayta baholashning iqtisodiy mohiyatini ochib beradi. Shuningdek, asosiy vositalar haqqoniy qiymatini moliyaviy hisobotda aks ettirish orqali hisob ma'lumotlarining ishonchliligi va shaffofligini ta'minlashga qaratilganligini ko'rsatadi.

Kulikovaning (2016) yozishicha, "Qayta baholashning asosiy maqsadi mamlakatda investitsiya jarayonlarini amalga oshirish uchun iqtisodiy sharoitlar yaratish edi. Biroq, investitsiya faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, qayta baholash davrida investitsiya faolligi kuzatilmagan. Bundan tashqari, investitsiyalar yangi qurilishga emas, balki mavjud korxonalarni texnik qayta jihozlash va rekonstruksiya qilishga yo'naltirildi. Qayta baholash natijasi asosan asosiy vositalar qiymatining oshishi bo'ldi".

Lusa (2010) fikricha: "Asosiy vositalar" dastlab to'lov uchun sotib olingan yoki muassasa tomonidan ishlab chiqarilganda tannarx bo'yicha yoki tekin olinganda adolatli qiymat bo'yicha baholanishi kerak. Bunday holda, adolatli qiymat qayta baholash obyekti emas, balki obyektiv belgilangan narxga ega bo'lgan bitim kontekstida ikki ma'lumotli tomonlar o'rtasida aktiv almashish mumkin bo'lgan miqdorni ifodalaydi.

Xatamov (2026) ham asosiy vositalarni xalqaro standartlar bo'yicha qayta baholashni takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borgan. Biroq, muallif asosan xalqaro standartlar bo'yicha asosiy vositalarni qayta baholashni takomillashtirishning tashkiliy jihatlariga to'xtalib o'tadi. Uning fikricha, «asosiy vositalarni qayta baholashni takomillashtirishga qaratilgan kompleks yondashuv - qonunchilikdagi o'zgarishlar, kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish, texnologik yangilanishlar hamda davlat qo'llab-quvvatlashini o'z ichiga olgan holda hisob amaliyotining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash,

moliyaviy hisobot sifatini oshirish va o'zbek kompaniyalarining xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlash imkonini beradi». Ammo, muallif asosiy vositalarni qayta baholashni takomillashtirishga qaratilgan kompleks yondashuvni amalga oshirish mexanizmiga to'xtalib o'tmaydi.

Rahimova (2021) «Asosiy vositalar» tushunchasini milliy hisob tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish maqsadida «Mulk, zavod, mashina va asbob-uskunalar» deb nomlashni taklif etadi. Shuningdek, u «16-son BHXSda mulk, zavod, mashina va asbob-uskunalar (MZMAU) davomiy baholash uchun ikkita modeldan foydalanishni ko'zda tutadi: - boshlang'ich qiymat bo'yicha hisobga olish modeli; - qayta baholangan qiymati bo'yicha hisobga olish metodi» deb ta'kidlagan holda MZMAU larni qayta baholash jarayonini o'tkazish ketma-ketligini olti bosqichda amalga oshirishni tavsiya qiladi. Biroq, muallif tomonidan milliy hisob tizimida mazkur modellardan foydalanish tartibi va tavsiya etilgan MZMAU larni qayta baholash jarayonini o'tkazish ketma-ketligi yetarli darajada yoritib berilmagan.

Mamatkulov (2022) ham asosiy vositalar hisobini xalqaro buxgalteriya hisobi standartlariga moslashtirish muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Muallif tadqiqot ishida asosan asosiy vositalar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashtirishning nazariy jihatlarini tadqiq qilib o'rganish, xususan asosiy vositalarni qayta baholash bo'yicha quyidagilarni bayon qilish bilan chegaralanganligini ko'rish mumkin: «Barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar (mikrofirma va kichik korxonalardan tashqari) mulkchilik shaklidan qati nazar har yili 1-yanvar holatiga asosiy vositalar qiymatini joriy bahoga keltirish uchun qayta baholashni amalga oshiradilar. Bunda mikrofirma va kichik korxonalar 1-yanvar holatiga asosiy fondlarini har uch yilda bir marta qayta baholaydi. Asosiy vositalar bahosini oshirish (tushirish) summasi asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlarning (0100) debeti (kredit) bo'yicha 8510 «Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» schyoti bilan bog'langan holda aks ettiriladi».

Tadqiqot metodologiyasi.

Asosiy vositalarni qayta baholash jarayonini takomillashtirish masalasini tadqiq qilib o'rganishda amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to'plash, tasavvur etish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo'yish kabi nazariy-tadqiqot hamda ilmiy adabiyotlar, kuzatish va davr oralig'ida tadqiq qilish kabi empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Albatta, asosiy vositalarni qayta baholashni takomillashtirish bo'yicha yondashuvlarini e'tirof etgan holda amaldagi 5-sonli «Asosiy vositalar» nomli buxgalteriya hisobi milliy standartiga (BHMS, 2024) e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda «Haqqoniy qiymati ishonchli tarzda baholanishi mumkin bo'lgan asosiy vosita aktiv sifatida tan olinganidan so'ng, keyingi jamg'arilgan eskirish va qadrsizlanishdan jamg'arilgan zararlarni chegirgan holda, qayta baholash sanasidagi haqqoniy qiymatni aks ettiradigan qayta baholangan qiymatda hisobga olinishi lozim. Hisobot davri oxirida asosiy vositaning balans qiymati uning haqqoniy qiymatidan muhim (jiddiy) farqlanmasligi uchun qayta baholash yetarli darajada muntazam amalga oshirilishi lozim»ligi belgilangan. Mazkur standartda belgilangan qoida 16-sonli «Asosiy vositalar» nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standartida (BHXS, 2022) belgilangan asosiy vositalarni qayta baholashning «Qayta baholash modeli»ning mazmunini ifodalaydi. Unga ko'ra, asosiy vosita dastlab aktiv sifatida tan olinganidan so'ng, agar uning haqqoniy qiymatini ishonchli tarzda aniqlash imkoni mavjud bo'lsa, buxgalteriya hisobi subyekti mazkur aktivni qayta baholash modeli asosida hisobga olishi mumkin. Bunda asosiy vosita qayta baholash sanasidagi haqqoniy qiymatda baholanadi va ushbu qiymatdan asosiy vositaning jamg'arilgan eskirishi va qadrsizlanishdan kelib chiqqan jamg'arilgan zararlari summalari

chegirib tashlanadi. Natijada, buxgalteriya hisobida hisobga olinadigan asosiy vositaning qayta baholangan qiymati shakllanadi (1-jadval).


1-jadval

Asosiy vositalarni qayta baholashga doir milliy va xalqaro standart talablarining qiyosiy tahlili

Taqqoslash mezonlari	5-sonli «Asosiy vositalar» BHMS	16-sonli «Asosiy vositalar» BHXS
Qayta baholashning maqsadi	Asosiy vositalarni haqqoniy qiymatda hisobga olish	Asosiy vositalarni haqqoniy qiymatda hisobga olish
Qayta baholashning davriyligi	Qayta baholanayotgan asosiy vositaning haqqoniy qiymatidagi o'zgarishlarga bog'liq bo'ladi.	Qayta baholanayotgan asosiy vositaning haqqoniy qiymatidagi o'zgarishlarga bog'liq bo'ladi.
Hisob siyosatida aks ettirish	Qayta baholash usuli hisob siyosatida belgilanishi shart.	Tan olishdan keyingi baholash modeli hisob siyosatida aniq belgilab olinadi.
Qayta baholash usullari	Qayta baholash usuli	Boshlang'ich qiymat modeli Qayta baholash modeli
Qayta baholash qiymati	Haqqoniy qiymat –jamg'arilgan eskirish va qadrsizlanishni chegirgan holda	Tanlangan qayta baholash modeliga bog'liq: «Boshlang'ich qiymat modeli»da – boshlang'ich qiymat - jamg'arilgan eskirish va qadrsizlanishni chegirgan holda; «Qayta baholash modeli»da – haqqoniy qiymat –jamg'arilgan eskirish va qadrsizlanishni chegirgan holda
Qayta baholash natijalarini aks ettirish	Asosiy vositalarning qayta baholashdan kelib chiqqan qiymat ortishi yoki kamayishi "Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyoti orqali rezerv kapitalda aks ettiriladi va qayta baholash natijalari moliyaviy hisobotda joriy davrda ko'rsatiladi.	Qayta baholash ortishi boshqa umumlashgan daromadlarda tan olinib, xususiy kapitaldagi "Qayta baholash natijasida qiymatning o'sishi" moddasida jamg'ariladi. Qiymat kamaysa, ushbu kamayish foyda yoki zararlarda aks ettirilib, xususiy kapitaldagi jamg'arilgan summa kamayadi.
Amortizatsiyaga ta'siri	Bevosita ko'rsatib o'tilmagan	Qayta baholashdan so'ng amortizatsiya qayta hisoblandi

***Manba:** tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.*

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, asosiy vositalarni qayta baholashga doir 5-son BHMS va 16-son BHXSda belgilangan talablar deyarli bir xil. Biroq, 5-son BHMSda faqat asosiy vositalarni qayta baholashda «Qayta baholash usuli»dan foydalanish belgilangan. Undan farqli ravishda, 16-son BHXSda asosiy vositalarni tan olishdan keyingi baholash «Boshlang'ich qiymat modeli» yoki «Qayta baholash modeli» usullaridan foydalanilishi qayd etilgan (1-rasm).



1-rasm. 16-son BHXSga muvofiq asosiy vositalarni tan olishdan keyingi baholash usullari tasnifi

Manba: 16-sonli “Asosiy vositalar” BHXSga muvofiq muallif tomonidan shakllantirilgan.

1-rasmda asosiy vosita aktiv sifatida tan olingandan so'ng, uni 16-son BHXS talablariga muvofiq ravishda “Boshlang'ich qiymat modeli” asosida boshlang'ich qiymatda yoki “Qayta baholash modeli” asosida qayta baholangan qiymatda hisobga olish tartibi aks ettirilgan.

Monografik tadqiqot obyekti sifatida tanlangan “Navoiyazot” AJ va “Taxiatash donmahsulotlari” AJlarda asosiy vositalarni qayta baholash va uning natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi hisob siyosatida umumiy qoidalar asosida, ya'ni amaldagi BHMSlarida belgilangan talablar doirasida bayon etilgan. Xususan, “Taxiatash donmahsulotlari” AJ hisob siyosatining “Asosiy vositalarni baholash va hisobga olish tartibi” bo'limida asosiy vositalarni hisobga olish uchun mo'ljallangan ishchi schyotlar, asosiy vositalarning boshlang'ich qiymat bo'yicha tan olinishi va ular bo'yicha eskirishni to'g'ri chiziqli usulda hisoblash tartibi belgilab qo'yilgan xolos. Shuningdek, “Taxiatash donmahsulotlari” AJning moliyaviy hisobot axborotlarini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, 2024 - 2025-yillarda “Taxiatash donmahsulotlari” AJda asosiy vositalar qayta baholanmagan. Xuddi shunday holat “Navoiyazot” AJ faoliyatida ham kuzatilgan bo'lib, bu holat aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan asosiy vositalar qiymatida ahamiyatli o'zgarishlar mavjud emas deb baholangani bilan izohlanadi.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: 5-son BHMS va 16-son BHXSda belgilangan baholash usullariga muvofiq asosiy vositalarni qayta baholash qanday tartibda amalga oshirilishi lozim? Xususan, asosiy vositalarni qayta baholashni tashkil etish, uni o'tkazish va qayta baholash natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish mexanizmi qanday tartibda amalga oshiriladi degan masala dolzarb hisoblanadi. Chunki, milliy va xalqaro standartlarda asosiy vositalarni qayta baholash va uning natijalarini hisobga olishning aniq amaliy tartibi batafsil bayon etilmagan. Shu sababli, amaliyotda mazkur standartlarda belgilangan umumiy talablarni to'g'ri talqin qilgan holda hisob siyosatida asosiy vositalarni qayta baholash tartibiga doir qoidalarni belgilash va ularni amaliyotga to'g'ri tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Endi, 1-rasmda ko'rsatilgan asosiy vositalarni qayta baholash usullarini amaliyotda qo'llash masalasiga to'xtalib o'tmoqchimiz. Aytaylik, tadqiqot obyekti bo'lgan “Taxiatash donmahsulotlari” AJ 2021-yil 1-yanvarda zamonaviy donni qayta ishlash uskunasini 1 000 000, ming so'm qiymatda xarid qildi. Foydali xizmat muddati 10 yil va qoldiq qiymati belgilanmagan hamda to'g'ri chiziqli usulida eskirish hisoblash belgilangan.

Mazkur uskunani qayta baholash “Qayta baholash modeli”da amalga oshirilganda:

1. Dastlabki yillarda uskuna uchun eskirish hisoblanganda quyidagicha hisob-kitob

qilinadi va hisoblangan eskirish summasi buxgalteriya hisobida aks ettiriladi:

2021-yil uchun eskirish summasi = $1000000,0 \text{ ming so'm} : 10 \text{ yil} = 100000,0 \text{ ming so'm}$;

2024-yilda mazkur uskunaning jamg'arilgan eskirish summasi $300000,0 (100000,0 \times 3 \text{ yil})$ so'mga teng bo'ladi;

2024-yil 1-yanvar holatiga uskunining qoldiq qiymati $700\,000,0 (1000000,0 - 300000,0)$ so'mni tashkil etadi.

Har yilgi hisoblangan eskirish summasi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 2010 – «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti - $100000,0 \text{ ming so'm}$;

Kredit 0230 – «Mashina va asbob-uskunalarining eskirishi» - $100000,0 \text{ ming so'm}$.

2. Aytaylik, 2024-yil 1-yanvar holatiga mustaqil baholovchi tomonidan uskunaning haqqoniy qiymati $735\,000,0 \text{ ming so'm}$ etib belgilandi. Bundan ko'rinadiki, qayta baholash natijasida uskunaning qiymati $35000,0 (735000,0 - 700000,0)$ ming so'mga oshgan. Mazkur summa buxgalteriya hisobida quyidagicha hisobga olinadi:

Debet 0130 – «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti – $35000,0 \text{ ming so'm}$;

Kredit 8510 – «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» – $35000,0 \text{ ming so'm}$.

3. Uskuna uchun qayta baholangan qiymatdan eskirish hisoblanadi. Bunda:

2024-yil 1-yanvar holatiga uskunaning qayta baholangan qiymati – $735000,0 \text{ ming so'm}$; uskunaning qolgan foydalanish muddati esa, 7 ($10 - 3$) yilga teng.

Yuqoridagi ma'lumotlarga muvofiq uskunaning qayta baholangan qiymati asosida 2024-yil uchun hisoblangan eskirish summasi $105000,0 (735000,0 : 7)$ ming so'mga teng bo'ladi va bu summa buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 2010 – «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti - $105000,0 \text{ ming so'm}$;

Kredit 0230 – «Mashina va asbob-uskunalarining eskirishi» - $105000,0 \text{ ming so'm}$.

Bundan ko'rinadiki, qayta baholashdan keyin eskirish summasi $105000,0 \text{ ming so'm}$ gacha ortgan bo'lib, u jamiyat xarajatlarini ko'payishiga ta'sir ko'rsatadi.

2026-yilda mazkur uskunaning jamg'arilgan eskirish summasi $510000,0 ((100000,0 \times 3 \text{ yil}) + (105000,0 \times 2 \text{ yil}))$ so'mga teng bo'ladi;

2026-yil 1-yanvar holatiga uskunining qoldiq qiymati $490\,000,0 (1000000,0 - 510000,0)$ so'mni tashkil etadi.

4. 2026-yil 1-yanvar holatiga uskuna qayta baholanganda quyidagicha hisobga olinadi:

mustaqil baholovchi tomonidan uskunaning haqqoniy qiymati $450000,0 \text{ ming so'm}$ sifatida belgilandi. Demak, qayta baholash natijasida uskunaning qiymati $40000,0 (450000,0 - 490000,0)$ ming so'mga kamaygan. Bundan ko'rinadiki, Ushbu kamayish buxgalteriya hisobida quyidagicha hisobga olinadi:

1). Uskuna bo'yicha o'tgan hisobot davrlarida qayta baholash natijasida $35000,0 \text{ ming so'm}$ zaxira shakllangan bo'lib, hisobot davrida uskunani qayta baholash natijasida qiymatining kamayishi avvalo mazkur zaxira hisobidan qoplanadi va u buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 8510 – «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» – $35000,0 \text{ ming so'm}$;

Kredit 0130 – «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti – $35000,0 \text{ ming so'm}$.

Shuningdek, mazkur summa "Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot"ning boshqa umumlashgan daromad qismida aks ettiriladi.

2). Hisobot davrida qayta baholash natijasida uskuna qiymatining kamayishi bo'yicha shakllantirilgan zaxira hisobidan qoplanmagan qismi $5000,0 (35000,0 - 40000,0)$ ming so'm xarajatlarga olib boriladi va u buxgalteriya hisobida quyidagicha hisobga olinadi:

Debet 9430 – «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti – $5000,0 \text{ ming so'm}$;

Kredit 0130 – «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti – $5000,0 \text{ ming so'm}$.

5. 2026-yil uchun uskuna bo'yicha eskirish qayta baholangan qiymat ($450000,0 \text{ ming so'm}$) va qolgan foydalaniladigan muddati ($5=10 - 5$) dan kelib chiqqan holda hisoblanadi va

buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 2010 – «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti - 90000,0 ming so'm;

Kredit 0230 – «Mashina va asbob-uskunalarining eskirishi» - 90000,0 ming so'm.

Yuqoridagi hisob-kitoblarga ko'ra, qayta baholashdan oldin uskunaning yillik eskirish summasi 105000,0 ming so'm bo'lgan bo'lsa, u qayta baholashdan so'ng 90000,0 ming so'mgacha kamaygan. Bunday o'zgarish keyingi hisobot davrlarida jamiyat xarajatlarining kamayishiga ta'sir ko'rsatadi.

Uskunani qayta baholash "Boshlang'ich qiymat modeli"da amalga oshirilganda:

1. Uskunaga to'g'ri chiziq usulida har yili 100000,0 ming so'mdan yillik eskirish summasi hisoblanadi va 3 yilda jamg'arilgan eskirish summasi 300000,0 so'mga teng bo'ladi. Uskuna uchun hisoblangan yillik eskirish summasi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 2010 – «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti - 100000,0 ming so'm;

Kredit 0230 – «Mashina va asbob-uskunalarining eskirishi» - 100000,0 ming so'm.

2. 4 - yil boshida, ya'ni 2024-yil 1-yanvar holatiga uskunaning haqqoniy qiymati 670000,0 ming so'm sifatida baholandi. Bundan ko'rinadiki, uskunaning qardsizlanishi 30000,0 (670000,0 – 700000,0) ming so'mni tashkil qiladi va u hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 9430 – «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti – 30000,0 ming so'm;

Kredit 0130 – «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti – 30000,0 ming so'm.

3. 2024-yilda uskunaning amortizatsiya qilinadigan qiymati 670000,0 ming so'mdan kelib chiqqan holda hisoblangan eskirish summasi 96000,0 (670000,0 : 7) ming so'mga teng bo'ladi va u quyidagicha hisobga olinadi:

Debet 2010 – «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti - 96000,0 ming so'm;

Kredit 0230 – «Mashina va asbob-uskunalarining eskirishi» - 96000,0 ming so'm.

4. 2026-yil 1-yanvar holatiga uskunaning haqqoniy qiymati 600000,0 ming so'm sifatida mustaqil baholovchi tomonidan belgilandi. Ushbu qiymat uskunaning 478000,0 (670000,0 – (2 x 96000,0)) ming so'm qoldiq qiymatidan yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Mazkur holatda, uskunaning balans qiymatini tiklash zarurati yuzaga keladi. Chunki, MHXS talablariga muvofiq oldin qadrsizlangan aktivlar bo'yicha bozor sharoiti yaxshilangan taqdirda, ularning balans qiymatini tiklashga ruxsat etiladi, biroq tiklanadigan qiymat aktiv qadrsizlanish mavjud bo'lmagan holatda shakllanadigan qoldiq qiymatdan oshmasligi lozim.

Uskuna bo'yicha qadrsizlanish mavjud bo'lmaganda, 2026-yil 1-yanvar holatiga uning qoldiq qiymati 500000,0 (1000000,0 – 500000,0) ming so'mga teng bular edi. Demak, uskunani balans qiymatini maksimal 500000,0 ming so'mgacha tiklash mumkin. Bunda tiklanadigan balans qiymati bilan uskunaning qoldiq qiymati o'rtasidagi farq 22 000,0 (500000,0 – 478000,0) ming so'm "Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot"da daromad sifatida tan olinadi.

5. 2026-yil 1-yanvardan uskunaning tiklangan balans qiymati 500000,0 ming so'mdan eskirish hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bugungi kunda buxgalteriya hisobi subyektlari, xususan monografik tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan "Taxiatash donmahsulotlari" AJ va "Navoiyazot" Ajllarda asosiy vositalarni qayta baholashga oid qoidalar hisob siyosatida asosan milliy va xalqaro buxgalteriya standartlarida belgilangan umumiy talablarni qayd etish bilan cheklanmoqda. Bizningcha, bunday yondashuvni to'g'ri deb qabul qilib bo'lmaydi. Chunki, milliy va xalqaro standartlarda asosiy vositalarni qayta baholashning asosiy mezonlari va umumiy tamoyillari belgilangan bo'lsada, ushbu jarayonni qanday aniq ketma-ketlikda tashkil etish, o'tkazish va uning natijalarini buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibi batafsil yoritilmagan. Shu bois, buxgalteriya hisobi subyekti o'z hisob siyosatida milliy va xalqaro buxgalteriya standartlarida belgilangan talablardan kelib chiqqan holda asosiy vositalarni qayta baholashni tashkil etish, o'tkazish va qayta baholash natijalarini hisobga olish hamda moliyaviy hisobotda aks ettirishning aniq va izchil tartibini belgilab qo'yishi lozim.

Bunday yondashuv moliyaviy hisobot axborotlaridan foydalanuvchilar uchun ma'lumotlarning tushunarli, shaffof va sodda bo'lishini ta'minlaydi.

Fikrimizcha, asosiy vositalarni qayta baholash va uning natijalarini buxgalteriya hisobida hisobga olish hamda moliyaviy hisobotda aks ettirish jarayonini quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi (2-rasm).

Bosqich	Tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi
1	Asosiy vositani qayta baholash zaruratini aniqlash	Asosiy vositalarni qayta baholash zarurati hisobot davri oxirida ularning balans qiymati haqqoniy qiymatdan sezilarli darajada farqlayotgan hollarda yuzaga keladi.
2	Qayta baholash obyekti va guruhini aniqlash	Qayta baholash alohida aktivga nisbatan emas, balki iqtisodiy mazmuni va foydalanish xususiyati jihatidan bir xil bo'lgan asosiy vositalarning butun guruhiga nisbatan amalga oshirilishi lozim.
3	Qayta baholash obyekti va guruhini aniqlash	Qayta baholash alohida aktivga nisbatan emas, balki iqtisodiy mazmuni va foydalanish xususiyati jihatidan bir xil bo'lgan asosiy vositalarning butun guruhiga nisbatan amalga oshirilishi lozim.
4	Jamg'arilgan eskirish va qadrsizlanishni qayta hisoblash	Qayta baholash sanasida asosiy vositaning jamg'arilgan eskirishi va mavjud bo'lsa, qadrsizlanishdan jamg'arilgan zararlar qayta hisoblanadi. Ular aktivning yangi qayta baholangan qiymatiga mutanosib ravishda tuzatiladi.
5	Qayta baholash natijasini aniqlash	Qayta baholash natijasida asosiy vositaning balans qiymati oshishi yoki kamayishi mumkin: qiymatning oshishi boshqa umumlashgan daromadlarda tan olinib, xususiy kapitaldagi qayta baholash zaxirasida jamg'ariladi, qiymatning kamayishi esa, foyda yoki zararlar tarkibida aks ettirilib, avvalo mavjud zaxira hisobidan qoplanadi.
6	Qayta baholangan qiymatdan amortizatsiya hisoblash	Qayta baholangan qiymat va qolgan foydalanish muddati asosida amortizatsiya summalar qayta hisoblanadi.
7	Buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotda aks ettirish	Asosiy vositalarni qayta baholash natijalari buxgalteriya schyotlarida tegishli tarzda aks ettiriladi va moliyaviy hisobotda ochib beriladi. Shu bilan birga, hisob siyosatida qo'llanilgan baholash modeli va qayta baholash davriyligi to'g'risida axborot taqdim etilishi lozim.

2-rasm. Asosiy vositalarni qayta baholash jarayonini o'tkazish algoritmi

Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2-rasmda keltirilgan, asosiy vositalarni qayta baholashni amalga oshirishning mazkur algoritmi, asosiy vositalarning haqqoniy qiymatini moliyaviy hisobotda aks ettirishga, eskirish

summalarini iqtisodiy jihatdan asoslangan tarzda hisoblash orqali jamg'arilgan amortizatsiya aniqligini ta'minlashga va moliyaviy hisobotda asosiy vositalarga doir axborotlarning ishonchliligi va shaffofligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

Shunday qilib, asosiy vositalarni qayta baholash va uning amortizatsiyaga ta'sirini tadqiq qilib o'rganish natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

asosiy vositalarni qayta baholashga doir milliy va xalqaro buxgalteriya hisobi standartlarida belgilangan talablar qiyosiy tahlil qilib o'rganildi hamda "Qayta baholashning maqsadi", "Qayta baholashning davriyligi", "Hisob siyosatida aks ettirish", "Qayta baholash usullari", "Qayta baholash qiymati", "Qayta baholash natijalarini aks ettirish" va "Amortizatsiyaga ta'siri" kabi taqqoslash mezonlari asosida farqli jihatlari ochib berildi;

16-son BHXSga muvofiq, asosiy vositalarni tan olishdan keyingi baholash «**Boshlang'ich qiymat modeli**» yoki «**Qayta baholash modeli**» asosida amalga oshirilishi tizimli tarzda tasniflanib yoritib berildi. Shuningdek, ushbu usullardan foydalangan holda asosiy vositalarni qayta baholash va uning natijalarini hisobda aks ettirish tartibi "Taxiatash donmahsulotlari" AJ misolida yoritib berildi;

asosiy vositalarni qayta baholashni tashkil etish, o'tkazish va qayta baholash natijalarini hisobga olish hamda moliyaviy hisobotda aks ettirishning aniq va izchil tartibini belgilab qo'yish maqsadida yetti bosqichli asosiy vositalarni qayta baholash jarayonini o'tkazish algoritmi ishlab chiqildi. Bu albatta, asosiy vositalarni qayta baholash jarayonini o'tkazish ketma-ketligini tushunarli va sodda bo'lishini hamda asosiy vositalarga oid axborotlarning ishonchliligi va shaffofligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/ Литература / Reference:

Adam Hayes, Margaret James (2021). How to Account for Changes in the Market Value of Various Fixed Assets. May 16. <https://www.investopedia.com/>

BHMS, (2024) Buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-sonli BHMS, 2024) «Asosiy vositalar». <https://lex.uz/acts/821041>

BHXS, (2022) Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (16-son BHXS, 2022) "Asosiy vositalar" <https://lex.uz/uz/docs/6312360>

Farmon (2025) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi PF-43-son "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi Farmoni. lex.uz/docs/7417774#7419125

Luca C. (2010), Revaluation and Amortization of Fixed-assets, a Novelty in the Accounting Policies of the Ministry of National Defense Military Units, The Bulletin of the Carol I National Defense University, 4, 156-165, from <https://www.cceol.com/search/article-detail?id=126217>

Mamatkulov M.Sh. (2022) Asosiy vositalar hisobini xalqaro buxgalteriya hisobi standartlariga moslashtirish muammolari. Obrazovaniye i nauka v XXI veke. Vypusk №25 (tom 5), aprel. 1244-1252 s.

Rahimova G. (2021) Xalqaro standartlarga muvofiq mulk, zavod, mashina va asbob-uskunalarini davomiy qayta baholash natijalari hisobi. Jamiyat va innovatsiyalar jurnali. 3 (2021). 112-120 betlar.

Куликова Л.И. (2016) История проведения переоценок основных средств в России: накопленный опыт, результаты и сюрпризы. История эволюции развития учета, анализа и аудита. № 1. 129-141 с.

Хатамов К.Х. (2026) Совершенствование переоценки основных средств по международным стандартам в Узбекистане. Agrobiznes, fan va texnologiyalar jurnali. №1-son. 315-323 с.